



UDK: 94(575.141)“04/05”:338.43

Rabiyajon IBRAGIMOVA,
Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, t.f.d D.Babajanova taqrizi asosida

ECONOMIC FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF ANCIENT SOCIETY IN THE KHOREZM OASIS

Annotation

This research article analyzes the economic factors behind the development of socioeconomic and ethnocultural ties in the ancient society of the Lower Amu Darya. Based on various archaeological data, conclusions are drawn regarding the lifestyle, activities, and economic management of these ancient peoples.

Key words: Tolstov S.P., Khromov A.L., Herodotus, Bartold V.V., Gulyamov Ya.G., Zhabbarov I., Livshits V.A., Khorezm, Amu Darya, Khvar, Razm, Khvarazm, Ukuz, Oks, Oxus.

XORAZM VOHASIDA ANTIK DAVR JAMIYATI RIVOJLANISHINING IQTISODIY OMILLARI

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada Quyi Amudaryo hududi antik davr jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va etnik-madaniy munosabatlar rivojlanishining iqtisodiy omillari tahlil qilingan. Turli arxeologik ma'lumotlar asosida qadimgi xalqlarning turmush tarzi, faoliyat turlari va xo'jalik yuritish madaniyati borasida ilmiy xulosalar chiqarilgan.

Kalit so'zlar: Tolstov S.P., Xromov A.L., Gerodot, Bartold V.V., G'ulomov Ya.G., Jabbarov I., Livshis V.A., Xorazm, Amudaryo, Xvar, Razm, Xvarazm, O'kuz, Oks, Oksus.

ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ АНТИЧНОГО ОБЩЕСТВА В ХОРЕЗМСКОМ ОАЗИСЕ

Аннотация

В данной научной статье анализируются экономические факторы развития социально-экономических и этнокультурных связей античного общества Нижней Амударьи. На основе различных археологических данных сделаны научные выводы об образе жизни, видах деятельности и экономическом управлении древних народов.

Ключевые слова: Толстов С.П., Хромов А.Л., Геродот, Бартольд В.В., Гулямов Я.Г., Жаббаров И., Лившиц В.А., Хорезм, Амударья, Хвар, Разм, Хваразм, Укуз, Окс, Оксус.

Kirish. Antik davr (mil.avv. IV – milodiy IV asrlar) jamiyatda kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va etnik-madaniy munosabatlarda yuz bergan tub o'zgarishlari bilan nafaqat Xorazm vohasida balki O'zbekistonning antik davr tarixida o'ziga xos muhim davr hisoblanadi. Antik davrda Xorazm vohasi jamiyatining barcha sohalarini urbanistik jarayonlar natijalari qamrab olgan. Antik davr jamiyatida iqtisodiy rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlaridan biri temir davri jamiyatida kechgan jarayonlar ta'sirida rivojlanishi davom etganligi bilan bog'liq edi.

Ikkinchi xususiyati urbanistik jarayonlar ta'sirida yangi turar-joylar qad ko'tarilib, madaniy-xo'jalik markazlari vazifasini bajargan. Turar joylarda o'rnatilgan aholi mavjud bo'lgan iqtisodiy omillardan foydalanib, jamiyatni iqtisodiy jihatidan yanada rivojlantirishga muvaffaq bo'lganlar. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi Amudaryo o'ng va so'l sohili hududlarida antik davr jamiyatida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishiga asos bo'lgan iqtisodiy omillarni o'rganishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekistonning shimoli-g'arbida joylashgan Xorazm tekisligi yozma manbalarda turlicha toponomikada qayd qilingan. S.P.Tolstov asarida qayd qilingan “Xvar – go'sht va Razm – o'tin” ma'nosini Xvarizamni Xorazm bilan bog'laydi [1]. A.L.Xromov Xorazmni “unumli yer” deb izohlagan [2]. Xorazm vohasi tekisligida harakat qilgan Amudaryo suv tarkibidagi mineral moddalarni asrlar davomida yotqizishi iqtisodiy omillarni ajdodlarimiz manfaatiga xizmat qilishi uchun tayyor unumdor yer imkoniyatlarini yaratib berdi. Amudaryo nomi yozma va tarixiy adabiyotlarda turlicha tahlil etilgan. Jumladan, yunon tarixchisi Gerodot Amudaryoga Akes deb nom bergan [3]. V.V.Bartold fikricha Akes va Oks

bir-biriga o'xshash degan g'oyani ilgari surgan [4]. Y.G'.G'ulomov esa mahalliy aholi tomonidan ishlatilgan Amudaryo “o'kuz” deb qayd qilgan[5].

I. Jabbarov asarida Amudaryo suvi tarkibidagi mineral moddalarga serob bo'lgan loyqani har yili yotqizgan 200 million tonna (1,2 kub m) tekislikda, iqtisodiy omilni hosil qilgan [6].

V.A.Livshis qayd qilishicha, Amudaryo “Oksus”, “Oks” degan nomlarga ega bo'lgan [7]. Zamonaviy adabiyotlarda Aranxa, Arang atamalarga e'tibor bergan M.Jo'rayev va Narziqulova Amudaryoni o'kuz deb qayd qilganlar [8].

Tadqiqotchi D.Sh.Qurbonovanning qayd etishicha mil.avv. IV asrda Amudaryo Vaxsh (Yunon manbalarda – Oksus, Oks deb atalgan)[9]. N.A.Egamberdieva monografiyasida Amudaryoni Datiya deb atalishi borasida ma'lumotlar ham uchraydi[10].

Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari asarlarida Quyi Amudaryo hududida tosh davri so'nggi bosqichidan etnik jarayonni olib borgan ajdodlarimiz tabiiy hadyasidan unumli foydalanganlar. Mil.avv. VI-V mingyilliklarda Amudaryodan ajralib chiqqan Oqchadaryo irmog'i, Qizilqum ko'chish xarakteriga ega bo'lgan qum uyumlari oralig'ida maydonlar suv havzalariga aylanib, ular sohili etaklari iqtisodiy omillarni hosil qilgan, bu jarayon bronza davrida ham davom etgan. So'l sohil hududida neolit davridan boshlab Amudaryoni Dovdon va Daryoliq irmoqlari iqtisodiy omillarni hosil qilgan[11]. Mazkur irmoqlardan chiqarilgan o'ng sohilda Kaltaminor, Tozabog'yob, Amirobod, so'l sohilda Dovdon irmog'idan chiqarilgan Charmanyob sug'orilish inshooti hosil qilgan[12].

Tadqiqot metodologiyasi quyidagilar belgilab olindi:

Ilmiy maqolada obyektivlik, tarixiy-xronologik izchillik, nazariy-qiyosiy tahlil, munozara, asoslash, umumlashtirish uslublaridan keng qo'llanilgan. Shuningdek, arxeologiya, geografiya va etnografiya fanlari natijalari hamda ilmiy asoslangan xulosalardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. O'tgan asr va Milliy mustaqillik yillari tadqiqotchilar asarlarida qayd qilingan tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirish asosida antik davr jamiyatining rivojlanishiga ta'sir etgan iqtisodiy omillar tahlil qilindi. Bunga, asosan Qizilqum sochma qum uyumlari oralig'ida sernam va serunum hududi o'troq aholi tomonidan Amudaryodan chiqarilgan sug'orilish tarmoqlari Kaltaminor, Tozabog'yob va Amirobod hamda Sariqamishbo'yi havzasida Dovdon irmog'idan chiqarilgan Charmanyob sug'orilish inshooti, undan ikki yon tomon hududlar sari chiqarilgan sug'orilish tarmoqlari yoritib berilgan. Qizilqum to'lqinsimon qum tepaliklar barhanlari, ding'iljalar (Julg'unlar) oralig'ida sernam va serunum taqirlarni o'zlashtirish maqsadida Amudaryo suv oqimini jilovlash hamda aholi tomonidan chiqarilgan sug'orilish inshootlari suv tarkibidagi mineral moddalarni yotqizishi dehqonchilik uchun unumdor yerlarni paydo qildi. Ushbu omillar esa antik davr aholisining turmush-tarzi va ho'jalik yuritish faoliyatiga ijobiy ta'sir o'tkazdi. Shu bilan bog'liq iqtisodiy omillar tahlilidan kelib chiqib, quyidagi xulosalarni ifodalash mumkin.

Amudaryo minglab yillar mobaynida Xorazm tekisligini o'ng va so'l sohil hududlarga ajratgan holda suv tarkibidagi mineral moddalarni yotqizishi natijasida tarkib topib, ekin-tekinklikka qulay bo'lgan hudud mil.avv. V asr oxiridan undan chiqarilgan sug'orilish inshootlari orqali sun'iy

sug'orma dehqonchilik vohalariga asos solindi. Mil.avv. IV-III asrlarda yirik magistral sug'orilish inshootlari iqtisodiy omillarni hosil qilgan dehqonchilik vohalari aholi tomonida kundalik faoliyatlarini olib borishiga imkon yaratganligi masalasida natijalar qayd qilindi.

Xulosa va takliflar. Yuqorida qayd etilgan tahlil va natijalar asosida quyidagi xulosa izohlandi, ya'ni Amudaryo taraqqiyoti natijasida Qizilqum va Qoraqum oralig'ida joylashgan Xorazm tekisligi mil.avv. 40-35 mingyillikdan buyon etnik makonga aylangan, bu jarayon tosh asri, bronza va temir davrlarida ajdodlarimiz Amudaryo hadyasidan unumli foydalanib, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy rivojlantirish barobarida murakkab tarixiy yo'lni bosib o'tgan. Mazkur tarixiy yo'l tajribasi bir-birini boyitib, uning natijalari moddiy va ma'naviy madaniyatida o'z ifodasini topgan. Shu ma'nodan yakuniy xulosa sifatida quyidagilarni qayd qilish va takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Amudaryo taraqqiyotini yozma manbalar va arxeologik tadqiqotlar natijalarini umumlashtirib yoritish zarurati mavjud. Chunki ushbu daryo turli xalqlarning tarixiy taqdiriga daxldor bo'lishi bilan bir qatorda, u sivilizatsiyaviy ahamiyatga ham egadir;

2. Amudaryoning Xorazm tekisligida ming-minglab yillar harakati natijalarini keng tarzda o'rganish lozim. Ushbu yo'nalish nafaqat tarix fani, balki geografiya va boshqa qigloq xo'jaligi fanlari uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi;

3. Amudaryoning tarixdagi ilk harakat yo'nalishlari, irmoqlari va tizimini hozirgi davr bilan nazariy-qiyosiy tahlil qilish zarurati mavjud.

ADABIYOTLAR

1. Толстов С.П. Древний Хорезм. -МГУ., 1948.
2. Хромов А.Л. Хорезм в древнеиранских и среднеиранских письменных источниках /Хорезм и Мухаммед ал-Хорезми в мировой истории и культуре. -Душанбе, 1983.
3. Геродот. В девяти книгах /Пер.с греческого и коммент. Г.А.Страгановского. -М.: ОЛМА-ПРЕСС. 2004.
4. Бартольд В.В. Сведения об Аральском море и Низовья Амударьи древнейших времен до XVII в //Известия Торго-Ташкент, -Т. IV. Вып- II.
5. Фуломов Я.Ф. Хоразмининг суғорилиш тарихи. -Тошкент, Фан, 1959.
6. Жаббаров И. Юксак маданият ва ноёб маънавият маскани. -Тошкент "Ўзбекистон", 2012.
7. Лившиц В.А. Надписи и документы //Калалыгыр-2 Культурный центр в Древнего Хорезма IV-II вв до н.э. -М.: ИВЛ РАН. 2004.
8. Жураев М., Нарзикулова М. Миф, фольклор ва адабиёт. -Т. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 2006.
9. Қурбанова Д.Ш. Хоразм воҳасининг қадимги ва илк ўрта асрлар маънавий маданияти//Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. -Тошкент, 2015.
10. Эгамбердиева Н.А. Амударё ҳавзаси ҳудудларининг қадимги маданияти. -Тошкент, Инновацион зиё. 2020.
11. Виноградов А.В. Неолитические памятники Хорезма. -М.: Наука,1968. № 8.
12. Итина М.А. История племен Южного Приаралья //ТрХАЭЭ. -М.: 1977.
13. Собиров Қ. Хоразмининг кишлок ва шаҳарлари муҳофаа иншоотлари. -Тошкент, Фан, 2009.